



WAZIRLIK

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

ILK O'QUV DASTURI
ASOSIY FAOLIYATLAR MATEMATIKA
FAOLIYATLARI

O'RTA O'QUV

ELEMEN

MATEMATIKA



**ILK QADAM DAVLAT O‘QUV
DASTURI ASOSIDA O‘RTA
GURUHLARDA YIL DAVOMIDA
O‘TKAZILADIGAN
ELEMENTAR
MATEMATIKADAN
FAOLIYAT
ISHLANMALARI**

Son va sanoq

1. 5 sonining hosil bo'lishi bilan tanishtirish va 5 ichida sanashga o'rgatish.
2. Soni 5 gacha bo'lgan ikki guruhdagi buyumlar sonini taqqoslash.
3. 5 sonining hosil bo'lishi bilan tanishtirish va 6 gacha ketma-ket tartib bilan sanashga o'rgatish.
4. 5 sonining hosil bo'lishi bilan tanishtirish va 7 gacha tartib bilan sanashga o'rgatish.
5. 5 sonining hosil bo'lishi bilan tanishtirish va 8 gacha tartib bilan sanashga o'rgatish.
6. 5 sonining hosil bo'lishi bilan tanishtirish va 9 gacha tartib bilan sanashni o'rgatish.
7. 5 sonining hosil bo'lishi bilan tanishtirish va 10 gacha tartib bilan sanashga o'rgatish.
8. 10 sonini hosil bo'lgan 2 guruhdagi buyumlar sonini taqqoslash.
9. 7 gacha bo'lgan sonning hosil bo'lishi bilan tanishtirish.

(kattalik)

1. Buyumlarni bo'yiga va rangiga qiyoslab tartiblashtirish.
2. Narsalarning qalinligini qiyoslab tartiblashtirish.
3. "Qalin", "yupqaroq", "bir xil" atama bilan g'riqiyoslab hosil qilish.
4. Narsalarning hajmini katta va kichik nisbatda qiyoslab tartiblashtirish.
5. Narsalarning uzunligi, kengligini qiyoslab tartiblashtirish.
6. Turli xil o'lchamdagi narsalar o'zaro bir xil o'lchamdagi narsalarni aniqlash va farqlash.
7. Eng keng, torroq va eng tor haqida tushunchaga ega bo'lish.
8. Balandligi va eni bo'yicha keskin farq qiluvchi narsalarni qiyoslab tartiblashtirish.

Geometrik shakllar

1. Doira, kvadrat va uchburchak shakllarini bir-biridan farqlashni mustahkamlash.
2. Narsalarni doiraviy, kvadrat, uchburchak shakllari haqidagi tasavvurlarni mustahkamlash.
3. To'g'ri to'rtburchak bilan tanishtirish.
4. Kvadrat, uchburchak, to'rtburchak shakllari haqida tasavvurlarni mustahkamlash.
5. Oyinchoqlar bilan tanishtirish.
6. Geometrik shakllar farqlashga o'rgatish.
7. Geometrik shakllar (kattalikda) bo'lishi haqida tasavvur hosil qilish.
8. Oyinchoqlar va hayuklarning asosidan tanish bo'lgan geometrik shakllarni ko'rsatib berish.

Fazoviy tasavvur

1. Narsalarni o'ng yon bilan ko'zga qarab terish ko'nikmasini mustahkamlash.
2. Fazoviy tasavvurlar shakllari haqida tasavvur hosil qilish.
3. Yuqoriga-pastga, oldinga-ortga, o'ng va chap yo'nalishlarda to'g'ri harakat qilish ko'nikmasini mustahkamlash.
4. Uzoq-yaqin, yaqinroq, uzoqroqda bo'lishni hosil qilish.
5. Fazoda mo'ljal o'la bilishni o'rgatish.
6. Geometrik shakllarning fazoviy joylashganini aniqlashga o'rgatish.
7. Bolalarni berilgan yo'nalishda harakat qilishni o'rgatish.

Vaqt haqida tasavvur

1. Kun-tun.
2. Ertalab, kunduzi, kechqurun.
3. Kecha, bugun, ertaga.
4. Kun-tun, ertalab-kechqurun haqidagi tushunchalarni mustahkamlash.

Son va sanoq

Mavzu: 5 sonining hosil bo'lishi bilan tanishtirish va 5 ichida sanashga o'rgatish

Maqsad:

- Bolalarga sanashni o'rgatish.

Kutilayotgan:

- Bolalar 5 sonini hosil qilishini va barmoqlar yordamida 5 gacha sanashni o'rganadilar.
- Bolalar sanashga va har bir ishga ijodiy yondashishga o'rganadilar.
- Bolalar o'z fikriga o'z fikrini aytishni o'rganadilar.

Kerakli jihozlar:

- Sanoq cho'plari
- Mayda doira
- Sariq va oq qog'oz
- Rangli qalamlar.
- 16-rasm (har bir barmog'ga)

Tarbiyachi: Bolajonlar men sizni 5 sonini hosil qilishni o'rgataman. Behzod degan bir bola bor ekan. Bir kuni ularning uyiga boribdi. Onasi Behzodga nonvoyxonadan 4 ta non olib kel, deb aytdi. Behzod nonvoyxonaga borsa, nonvoy amaki ish bilan band ekan.

- "4 ta nonni o'zing sanab olaqol", - debdi. Behzod 4 ta nonni sanab, uyiga 3 ta non olib uyiga boribdi. Onasi xafa bo'libdi. Behzodning uyatiga uyat qo'yishni bilmas ekan. Bolalar, sanashni bilmaslik yaxshi emas. Bolalarni sanashni o'rganishingiz zarur ekan-a.











Bolajonlar, nechta birdan 3 soni hosil bo'la olasiz? To'g'ri, 3 ta 3 dan 3 soni hosil bo'ladi. Endi 4 sonini hosil qilish uchun 4 ta 1 dan 4 soni hosil bo'ladi. Bolalar, sanoq cho'plardan 1 ta olib oldingizda turgan sariq qog'ozni 4 ta qog'ozga qo'yib, 1 ta bitta olib yonidan qo'yamiz. Bolalar, sanoq cho'plar nechta bo'ldi. To'g'ri, 4 ta bo'ldi. Yana bitta olib, 2 ta cho'pning yonidan qo'yamiz. Bolalar, sanoq cho'plar nechta bo'ldi. Barakalla, 3 ta bo'ldi. Yana bitta olib, 3 ta cho'pning yonidan qo'yamiz. Bolalar, sanoq cho'plar nechta bo'ldi. To'g'ri, 4 ta bo'ldi, 4 ta 1 dan 4 soni hosil bo'ladi. Bolalar, 4 ta sanoq cho'pga yana bitta cho'p qo'shsak, ular 5 ta bo'ladi. Bolalar, 5 ta barmog'ni 5 ta bir sonidan hosil qilinadi-1, 1, 1, 1, 1. Mana bu son -5.



Tarbiyachi kartochkani bolalarga ko'rinadigan joyga ilib qo'yadi.

Bolalar uchun amaliy ish.

Tarbiyachi: Bolajonlar, rasmlarda nechta kubik va uchburchak tasvirlangan bo‘lsa kvadratlarning ichiga shuncha nuqta qo‘yinglar.

	.		
	..		
		
			
			

Bilimlarni mustahkamlash uchun o‘yinlar: “Topgan -topaloq”.

Tabiyachi: Bolajonlar hozir “Topgan -topaloq” o‘yinini o‘ynaymiz, diqqat bilan tinglanglar:

Bir supada besh o‘rtoq,

Qani topingchi tezroq.

Topishmoqning javobini topishga harakat qilinglar. Topishmoqning javobini Faoliyat yakunida aytamiz.

Hammamizning oldimizda oq qog‘ozlar turibdi. Chap qo‘limizni shu oq qog‘ozning ustiga, barmoqlarimizni bir oz ochib qo‘yamiz. O‘ng qo‘limizga qalam olib barmoqlarimiz atrofidan yurgizib chiqamiz. Mana qog‘ozda barmoqlarimiz shakli hosil bo‘ldi. Tasvirdagi qo‘limiz barmoqlarini sanab chiqamiz. Endi tasvirdagi barmoqlar uchiga 1 tadan doiracha qo‘yib chiqamiz. Endi bu barmoq uchlaridagi doiralarni bittalab sanab kaft qismiga to‘playmiz. Yana sanab barmoq uchlariga olib boramiz. Hammamiz chizgan rasmimizni o‘zimiz xohlaganimizcha bezatamiz va nomlaymiz. (Har bir bola o‘zining chizgan rasmini izohlab beradi. Rasmlar «Bolalar ijodidan» tasviriy faoliyat burchagiga ilib qo‘yiladi).

Jismoniy daqiqa: Bolalar endi hammamiz o‘rnimizdan turamiz. Qo‘llarimizni yuqoriga ko‘tarib 5 marotaba chapal chalamiz, 5 marotaba o‘tirib turamiz, 5 marotaba sakraymiz.

Bolajonlar, sizlarga aytgan topishmog‘imning javobini topdingizmi? Hammamiz o‘ng qo‘limizni diqqat bilan kuzatamiz. Bu topishmog‘imizning javobi–besh o‘rtoq- bu 5 ta barmog‘imiz. Supa esa kaftimiz. Barmoqlarimiz bir-birlari bilan do‘st. Barmoqlarimizni sanaymiz-1, 2, 3, 4, 5. Agar shu barmoqlarning bittasi bo‘lmasa ish qilishimiz qiyin. Birdamlikda gap ko‘p.

Tarbiyachi 5 sonini ko‘rsatib so‘raydi: Mana bu qaysi son ekan?

Bolalarning javobi.

Bolalar bilimni mustahkamlash uchun topirshiriq va savollar:

1. Matiz avtomobilining nechta g‘ildiragi bor?
2. 4 sonidan oldin va keyin qaysi sonlar turadi?
3. 4 soniga nechani qo‘shsak 5 soni hosil bo‘ladi?
4. Bitta qo‘lingda nechta barmoq bor?
5. 5 soni ichida nechta bir bor?

Faoliyat yakuni:

Tarbiyachi:-Bolajonlar, bugun men sizlardan juda xursand bo‘ldim, hammangiz sanashni juda yaxshi o‘rganib oldingiz, rasmlarni ham rang-barang qilib, chiroyli chizdingiz.

Fazoviy tasavvur

Mavzu: Narsalarni o'ng qo'l bilan chapdan o'ngga terish ko'nikmasini mustahkamlash

Maqsad:

- Bolalarni narsalarni terib chiqishni o'rgatish.
- Narsalarni chapdan o'ngga terish ko'nikmasini mustahkamlash.

Kutilayotgan:

- Bolalar o'ng va chap qo'llarini to'g'ri qo'llaydilar.
- Narsalarni o'ng qo'l bilan chapdan o'ngga terish ko'nikmasini mustahkamlanadi.

Kerakli jihozlar:

- Mevalar mulyaji.
- Yo'lli kartochkalar.
- Mayda doira, uchburchak shakllar.

Faoliyatning mazmuni:


Tarbiyachi: Bolajonlar, biz har doim biror bir ish o'ng qo'l bilan yoki chap qo'l bilan bo'lsak, qaysi qo'limizni ishlatamiz. To'g'ri, o'ng qo'limizni ishlatamiz. O'ng qo'limizni ishlatish uchun qulay. Shuning uchun o'ng qo'lda bajarilgan ishlar tez va qulay bo'ladi.

Xalqimizda "Ishing o'ngidan kelsin" degan ibora bor. Bu gap bizni o'ng qo'l bilan ishlatishga undaydi. Demak, bugungi Faoliyatimizda chap qo'limiz qimirlamay dam olish uchun o'ng qo'limizni ishlatamiz. O'ng qo'limiz ish bajaradi. Hammamiz chap qo'limizni chap tizzamiz uchun o'ng qo'limizni ishlatamiz. Men hozir o'ng qo'lim bilan mevalarni (mulyaj ko'rinishida) 1. O'ng qo'lim bilan terib chiqaman. Ishni o'ng qo'lda bajaramiz, lekin bajaradigan ishimizni chap tizmamiz uchun o'ng qo'limizni ishlatamiz. Daftarga yozmoqchi bo'lsak yoki kitob o'qimoqchi bo'lsak, chap qo'limizni ishlatamiz. O'ng qo'limizni ishlatish boshlash kerak bo'lganidek, narsalarni ham chapdan o'ngga qarab terib chiqamiz. Tarbiyachi mevalarni chapdan o'ngga qarab terib chiqadi. Qanday mevalar, rangi qanday ekanligi so'raladi.

Bolalar uchun amaliy ish.

Tarbiyachi bolalarga o'ng qo'llarini yuqoriga ko'tarishlarini aytadi. Bolalar o'ng qo'llarini ko'targanlaridan so'ng havoda qo'llarini chapdan o'ngga qarab xuddi chiziq chizganday harakat qilishlarini aytadi. So'ngra oldilariga qo'yilgan yo'lli kartochkaning birinchi qatoriga chapdan o'ngga qarab 5 ta doira shakli terishlarini aytadi. Bolalar ishi kuzatiladi va ulardan "qayvoni o'l bilan qanday ish bajardingiz", deb so'rab chiqiladi.

Tarbiyachi bolalarga ikkinchi qatorga ham uchburchak shakllarini terib chiqishlarini aytadi. Tashkilotdagi bolalarning ishini to'g'ri bajargan yoki bajarmaganligi baholab olinadi. Tahlil qilish davomida ko'proq "o'ng", "chap" so'zlarini ishlatib olinadi.



Bilimlarni mustahkamlash uchun: "Kubik" o'yini

O'yinni tashkil etish: Bolalar uch qatorga turibdi. Har bir qatorning oldida savatchada 5 ta kubik. Bolalarning o'ng tomonida har bir kubik 3 metr masofa oralig'ida yonma-yon qo'yiladi.

O'yin mazmuni: Bolalar ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruhdagi birinchi bola oldidagi kubikdan bir donadan oladi va o'zining o'ng tomoniga birinchi guruhdagi ikkinchi bolaning o'ng qo'lga o'zining o'ng tomoniga qo'yadi. Ikkinchi guruhdagi ikkinchi bolaning o'ng qo'lga o'zining o'ng tomoniga qo'yadi. Bolalar o'ng tomoniga kubikni olib yugurib ketadi. O'yin shu tarzda davom etadi. Bolalar o'ng tomoniga o'ng tomonidagi kubiklarni adashmay chapdan o'ngga qarab terishlari kerak.

Bolalar bilimini tekshirish va mustahkamlash uchun savollardan foydalanish.

1. O'rtog'ingiz siz bilan qarama-qarshi turibdi, uning o'ng tomonida o'ng tomoningizda turibdi?
2. Chap tomoningizda o'tirgan o'rtog'ingizning ismini ayting.
3. O'ng tomoningizda o'tirgan o'rtog'ingizning ismini ayting.

Faoliyat yakunida hamma bolalarni rag'batlantirish.

Son va sanoq

Mavzu: Soni 5 gacha bo'lgan ikki guruhdagi buyumlar sonini taqqoslash

Maqsad:

- Bolalarning 1 dan 5 gacha bo'lgan sonlarning hosil bo'lishi haqidagi tasavvurini mustahkamlash.
- Soni 5 gacha bo'lgan ikki guruhdagi sonlarni taqqoslashni mashq qildirish.

Kutilayotgan natijalar:

- Bolalarda 1 dan 5 gacha bo'lgan sonlarni sanash malakasi mustahkamlanadi.
- Soni 5 gacha bo'lgan ikki guruhdagi sonlarni taqqoslay olish ko'nikmasi hosil bo'ladi.

Kerakli jihozlar:

- Qo'g'irchoqlar 5 ta.
- Piyola, qoshiqcha, likobcha (5 tadan).
- Mayda o'yinchoqlar (har bir bola uchun).
- 18-rasm (Har bir bolaga).
- Tugma qadalgan kartochkalar.

Faoliyatning borishi:

Tarbiyachi: Bolajonlar, hozir sizlar bilan birgalikda guruhimizga kelgan qo'g'irchoqlarni mehmon qilamiz. Mana bu stol atrofiga hammalari uchun joy qilamiz. Qo'g'irchoqlar nechta bo'lsa, shuncha stul qo'yamiz. Qo'g'irchoqlar nechtaligini sanab bilamiz. Sanashda qo'limiz bilan ko'rsatmaymiz, faqat ko'zimizni biridan ikkinchisiga o'tkazib sanaymiz -1, 2, 3, 4, 5. Demak nechta stul qo'yamiz? 5 ta. Ulug'bek va Kamoljon, sizlar stullarni qo'yingizlar. Sanab ko'ramiz, nechta stul qo'yishdi? 1, 2, 3, 4, 5.

-Marhamat, o'tiringlar,-qo'g'irchoqlarni o'tirishga taklif qilamiz, Muhayyo, siz mehmonlarning oldiga piyola olib keling.

-Bolalar Muhayyo nechta piyola qo'ydi? To'g'ri, 5 ta piyola qo'ydi. Buni yana quyidagicha aytishimiz mumkin: Qo'g'irchoqlar qancha bo'lsa shuncha piyola qo'ydi.


-Maftuna, siz likobcha qo'yib chiqqin. Bolalar, Maftuna nechta likobcha qo'ydi? Qani, birgalikda sanaymiz-1, 2, 3, 4, 5 ta. Qo'g'irchoqlar qancha bo'lsa shuncha likobcha qo'ydi.

-Bolajonlar, mehmonlarga yana nimalar taklif qilishni xohlaysizlar? (Bolalarning taklifi bo'yicha mehmonlarga mulozamat ko'rsatiladi, 5 gacha bo'lgan sonlarni ko'proq ishlatishga yo'naltiriladi).

Bolajonlar, diqqat bilan eshitinglar men stolni taqillataman. Necha marta taqillatsam, shuncha o'yinchoqni sanab stol ustiga terasizlar va nechta ekanligini aytasizlar.

Bolalar uchun amaliy ish.

Tarbiyachi: Bolajonlar, o'rtadagi raqamni aniqlang va unga teng narsalarni toping. Rasmlari 5 ga teng bo'lgan kartochkalarni chiziqlar yordamida 5 raqami bilan va o'zaro birlashtiring hamda bir xil rangga bo'yang.



Bolalar bilimni mustahkamlash uchun savollar: **“Topgan-topaloq”.** **Tarbiyachi:** Aziz bolajonlar, endi sizni topaloq o‘ynaymiz. Men sizlarga topishmoqlar aytaman, sizlar topingiz.

1. Rassom chizari o‘ynatib berdi.

Yuk ko‘targich ilmoqchi.

Men muallim sovg‘asi.

Bilimdon har o‘rtoqqa. Bu topishmoqlar qanday raqidda?

2. Katta kichik 5 o‘rtoq,

Uyushsa bo‘lar to‘qmoq. (Barmog‘i)

3. Nimaning 5 barmog‘i bor-u,

Lekin birorta ham tirnog‘i yo‘q? (Qo‘lqanch)

Bolajonlar, kelinglar endi “Sanog‘ini top” o‘yinini o‘ynaymiz.

Bolalar doira bo‘lib, qo‘llarini orqaga o‘rnatib turgan holda bolalarning qo‘llaridagi kartochkalar beriladi. (Tugmalarning soni 2 tadan-5 ta)

Bolalar qo‘llari orqada bo‘lgan holda tugmachalarni sanaydilar. “Kimda 2 ta tugma?”, “Kimda 5 ta tugma?”, “Kimda 3 ta tugma?” deb so‘ralganda bolalar qo‘llaridagi kartochkalar tugma sonini aytadilar va ko‘rsatadilar.

Barcha bolalarda nechta tugmali kartochka borligini sanaydilar. Bolalar qo‘llaridagi kartochkani orqa tomonini o‘girib bir-birlariga ko‘rsatadilar. Kartochkalar “orqaga yashiramiz” deyishi bilan, bolalar kartochkalarni orqaga yashirib, tugma sonini sanaydilar. Tarbiyachi yana kimning kartochkasida nechta tugma borligini sanaydilar. O‘yin davomida kartochkalarni 2-3 marta almashtiradilar. Kartochkaga tugma sonini sanaydilar. Bolalar xohishiga binoan davom etadi.

Bolalar bilimni tekshirish va mustahkamlash uchun savollar:

1. Bir likobchada 5 ta olma, ikkinchi likobchada 5 ta konfet bor. Ularning soni tengmi?
2. Mashinaning g‘ildiragi 4 ta, qo‘shimcha g‘ildirak bilan nechta bo‘ladi?
3. Tut, olma, o‘rik, gilos, shaftoli-nechta mevaning nomi aytili?
4. 1, 2, 3, 4, 5-bu sonlar ichidagi eng katta son qaysi?
5. Bosh barmoq, ko‘rsatkich barmoq, o‘rta barmoq, nomsiz barmoq, jimjiloq -jimjiloq nechinchi barmoq?

Faoliyat yakunida bolalar shirin so‘zlar bilan rag‘batlantiriladi.

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.

+99890-530-88-18 nomerga telegramdan yozishingiz yoki telegramdan jek456 izlab telegramga murojaat qilishingiz so'raladi. Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi.

Hujjat word variant doc formatda beriladi. O'rta guruhlarga 75 listdan iborat Elementar matematikani to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.




Narxi: 15 ming so'm

Telegram kanalimiz:

@maktabgacha_tt

To'lov uchun: HUMO 9860230104973329

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet orqali veb-saytlarga joylamang.

Kanal va gruppalarga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.